

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARUVINING TASHKILY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Muxtorova Zarina Abduhalil qizi

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti, Ta'lim
tashkilotlarida boshqaruv yo'nalishi magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayonidagi tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish muammolari va yechimlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor maktabgacha ta'lim tashkilotlarining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion boshqaruv uslublarini joriy etish masalalariga qaratiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba va zamonaviy boshqaruv tamoyillarining maktabgacha ta'lim sohasiga tadbiiq etilishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv, tashkiliy mexanizmlar, innovatsion boshqaruv, ta'lim samaradorligi, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В статье анализируются проблемы и пути совершенствования организационных механизмов в процессе управления дошкольными образовательными организациями. Основное внимание уделяется повышению эффективности деятельности дошкольных образовательных организаций, улучшению качества образования и внедрению инновационных методов управления. В статье также рассматриваются вопросы применения международного опыта и современных принципов управления в сфере дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, управление, организационные механизмы, инновационный менеджмент, эффективность образования, педагогический подход.

Abstract. This article analyzes the problems and solutions of improving organizational mechanisms in the process of managing preschool educational organizations. The main focus is on increasing the efficiency of preschool educational organizations, improving the quality of education and introducing innovative management methods. The article also discusses the application of international experience and modern management principles to the field of preschool education.

Key words: preschool education, management, organizational mechanisms, innovative management, educational effectiveness, pedagogical approach.

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Xususan, uzluksiz ta'limning

boshlang'ich bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar yosh avlodning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Hozirgi tez rivojlanayotgan dunyo ijodkor, bilimli, iste'dodli, keng dunyoqarashli va faol yoshlarga katta talab qo'yimoqda. Yosh avlodga maktabgacha ta'lim davridan boshlab katta e'tibor qaratish zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi".¹ Ta'kidlash joizki, Respublikamizda bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707 sonli "2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"²gi, 2017 yil 9 sentyabrda PQ-3261 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"³gi Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴gi Farmoni maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy asos hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi hamda Respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim bolalarning ilk rivojlanish bosqichida fundamental rol o'ynaydi, bu esa boshqaruv mexanizmlarining to'g'ri tashkil etilishini talab qiladi. O'zbekiston Prezidentining qaror va farmonlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilash ushbu ta'lim muassasasining tashkil etilishi va u yerdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Xalqaro darajada maktabgacha ta'lim sohasidagi tizimiy kamchiliklarni aniqlash, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha mexanizmlar ustida ish olib borish dolzarb masala sifatida tan olinmoqda. Shunday sharoitda, samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb vazifadir.

¹ Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56b.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PQ-2707- Qarori

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 y. PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

⁴ . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

- **Ta'lim-tarbiyani rejalashtirish:** Har bir bolaga moslashtirilgan individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash.
- **Resurslarni boshqarish:** Moliyaviy, moddiy va inson resurslarini samarali boshqarish maktabgacha ta'limning yuqori sifatini ta'minlaydi.
- **Pedagoglarni malakasini oshirish:** Pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanishini rag'batlantirish va ularning doimiy malaka oshirishiga imkon yaratish.
- **Monitoring va tahlil:** O'quv-tarbiya jarayonini muntazam nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish, shuningdek, bolalarning rivojlanish darajasini o'lchash.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatining monitoringi tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash hozirgi zamon talablariga mos kelmaydi. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari asosan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Bu jarayon bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga, shaxsiy rivojlanishiga, axloqiy va ongli taraqqiyotiga, shuningdek, maktabgacha yoshga mos faoliyat turlari orqali tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, katta yoshdagilar va tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagi tashkiliy mexanizmlar muhimdir:

- **Struktura va boshqaruv tizimi:** Har bir tashkilot o'zining boshqaruv strukturasi ega bo'lishi kerak. Bu struktura boshqaruv jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi.
- **Axborot texnologiyalarini joriy etish:** Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish boshqaruvni yengillashtiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Masofaviy ta'lim platformalari va monitoring tizimlari bolalarning rivojlanishini onlayn tarzda kuzatish imkonini beradi.
- **Innovatsion yondashuvlar:** Innovatsion boshqaruv metodlaridan foydalanish ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni tatbiq etishga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shu jumladan, pedagogik texnologiyalar, interfaol dars uslublarini qo'llash pedagoglarning samaradorligini oshiradi.
- **Xalqaro tajribani o'rganish:** Chet el mamlakatlarining maktabgacha ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalari O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Masalan, Finlyandiyaning ta'lim tizimi yondashuvlari, Yaponiyaning tarbiyaviy metodikalari innovatsion boshqaruvga asos bo'la oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv harakatlari, pedagogik jamoa bilan munosabati, ota-onalar bilan hamkorligi shu kabi boshqa jarayonlar ham bola tarbiyasi uchun juda muhim omillardan hisoblanadi.⁵ Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni takomillashtirish yo'lidagi ayrim muammolar quyidagilardan iborat:

- a). Moliyaviy resurslar yetishmovchiligi: Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida moliyaviy ta'minot yetarli emas, bu esa boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- b). Pedagog kadrlar yetishmovchiligi: O'zbekistonning ayrim hududlarida malakali pedagoglarning yetishmasligi ta'lim sifatiga ta'sir qilmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kuchaytirish zarur.
- c). Monitoring tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi: Maktabgacha ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun monitoring tizimlari to'liq ishga tushirilmagan.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xususiy va davlat hamkorligidagi maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, pedagoglarning doimiy malaka oshirishini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, belgilangan vazifalar O'zbekiston kelajagi bo'lgan yosh avlodning bilim va tajribaga ega bo'lishini ta'minlashga, psixologik yondashuvlar asosida maktabgacha ta'limni chuqurlashtirish va munosib kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, bu bosqich har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalab, ularni maktabga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, farzandlarimiz uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilishi lozim. Bunga qo'shimcha ravishda, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilishda nafaqat davlat muassasalari, balki nodavlat ta'lim tashkilotlari sonini oshirish, ushbu muassasalardagi ta'lim-tarbiya jarayonini qat'iy nazorat qilish va soha uchun malakali, tajribali kadrlarni jalb etish ham nihoyatda muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Samarali boshqaruv usullarini joriy etish, zamonaviy axborot texnologiyalarini integratsiya qilish va pedagogik kadrlarning malakasini oshirish bu jarayonning muhim jihatlari hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tajribadan foydalanish va innovatsion boshqaruv tamoyillarini qo'llash orqali O'zbekiston maktabgacha

⁵ F. Haqqiyeva - Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish mexanizmlari. *Международный научный журнал № 15 (100), часть 2 «Научный импульс»* Ноябрь, 2023

ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida”gi PQ-2707- Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 y. PQ-3261-son “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PF-5198-son “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni
5. F.Haqqiyeva - Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish mexanizmlari. *Международный научный журнал № 15 (100), часть 2 «Научный импульс»* Ноябрь, 2023